

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi
№ ~~2014000999~~
2014 yil 20 iyun



MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISH METODIKASI
fanining

O'QUV D A S T U R I

Oliy ta'limning

Bilim sohasi: 200000 – “Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq”
Ta'lim sohasi: 230000 – “Iqtisod”
Ta'lim mutaxassisligi: 5A230702– «Bank hisobi va audit»

Toshkent-2014

Fanning o'quv dasturi Toshkent moliya instituti "Bank hisobi va audit" kafedrasida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: Oblomurodov N. - TMI, Bank hisobi va audit kafedrası mudiri, i.f.n.
Ernazarov N. – TMI, Bank hisobi va audit kafedrası katta o'qituvchisi

Taqrizchilar: Omonov A. – TMI, "Kasbiy ta'lim" kafedrası mudiri, i.f.d.
Qoraliev T. – TMI, «Bank hisobi va audit» kafedrası professori, i.f.n.

Fanning o'quv dasturi Toshkent moliya instituti O'quv-uslubiy kengashida muhokama etilgan va tavsiya qilingan.
(2014 yil 26 aprel 5-sonli bayonnoma)

KIRISH

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Kadrlar tayyorlash to'g'risidagi milliy dasturning amalga oshirilishi iqtisod sohasini chuqur biluvchi kadrlar tayyorlash zarurligini taqozo qiladi. Iqtisodchi kadrlar o'z sohasini, mutaxassisligini chuqur bilishdan tashqari mutaxassislik fanlarini o'qitish, ular bo'yicha pedagogika va pedagogik mahorat asoslarini o'rganishi, auditoriya bilan ishlashni bilishlari lozim. Bunday talabga javob beruvchi iqtisodchi-pedagogni mutaxassis fanlarni o'qitishning metodikasi kabi fanlar bo'yicha bilim darajasini, interaktiv usullarni o'rgatmasdan amalda tayyorlash mumkin emas.

Ushbu fanning maqsadi – Bank hisobi va audit sohasida professional pedagog kadrlarni tayyorlash. “Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi” fanining vazifalari oliy o'quv yurtlarida mutaxassislik fanlarini o'qitish xususiyatlarini, o'qitish jarayoni va uning bosqichlarini, ma'ruza darslariga tayyorlanish, ularni sifatli o'tkazish asoslarini, seminar (amaliy) darslarga tayyorlanish va ularni sifatli olib borish, mutaxassislik fanlar bo'yicha ish o'yinlari olib borish va boshqa zamonaviy interaktiv va masofaviy o'qitish uslublarida darslar olib borishi, o'qitish va tarbiyaning uzviy bog'liqligini ta'minlash, muammoli o'qitish usullarini magistrantlarga o'rgatishni qamrab oladi.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- unda banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari, hujjatlashtirish, xujjatlar aylanishi va bank nazorati, Bosh va erdamchi kitob kitoblar bo'yicha sintetik va analitik hisob, naqd pulsiz hisob-kitoblarning rasmiylashtirilishi va hisobi, qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarning rasmiylashtirilishi va hisobi, banklararo hisob-kitoblarning hisobi va rasmiylashtirilish, qisqa muddatli kredit operatsiyalarining rasmiylashtirilishi va hisobini *bilishi kerak*;

- talaba kassa operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisobga olish, bank ichki operatsiyalari, daromadlar va xarajatlarning rasmiylashtirilishi va hisobi, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari to'g'risida *ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak*.

- talaba tijorat banklarining yangi hisobvaraqlar rejasi bo'yicha hisob va buxgalteriya o'kazmalarini jahon andozalari asosida bajarilishini, tijorat banklarining buxgalteriya hisobini amalga oshirishda qo'llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishi va hujjatlarning aylanishi, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari to'g'risidagi *malakalarga ega bo'lishi kerak*.

Shundan kelib chiqib:

- talabalar fanni o'rganish davrida har bir o'tiladigan mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan so'raladigan «tayanch» ibora, test savollariga javob berib, mavzu yuzasidan tegishli masalani echa olishi;

- o'qish davrida yozma nazorat ishlarini bajarishi va referatlar tayyorlashi;

- fanni o'zlashtirish natijasida va kelajakda talaba bank va moliya faoliyatida bo'ladigan o'zgarishlarni tahlil qilishni bilishi lozim.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Mazkur fanni o'rganish uchun magistr-iqtisodchi davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan quyidagi iqtisodiy fanlar bilan bevosita aloqada bo'ladi: «Banklarda buxgalteriya hisobi», «Bank auditi», «Bank statistikasi», «Bank statistikasi», «Tijorat banklari faoliyati tahlili», «Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi», «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish», «Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari», «Banklarda ichki va tashqi audit» va boshqa maxsus fanlar.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarishda bank va moliya tizimining tutgan o'rni beqiyosdir. Shuningdek, tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tug'ri yuritilishi va tijorat banklarida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish, buxgalteriya xisobini milliy standartlari asosida yuritilishi muhim ahamiyatiga ega .

Xo'jaliklar o'rtasidagi o'zaro naqd pulsiz xisob-kitoblari banklar orqali amalga oshiriladi. Banklar tomonidan bu jaraenni tezlashtirish masalalari esa iqtisodietning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

O'z navbatida, biznes va boshqaruv faoliyatida ish yuritadigan mutaxassislarga alohida talablar qo'yilganligi sababli, ushbu fan nazariy va amaliy fan hisoblanib, iqtisodiyotimizga malakali kadrlarni etkazib berishda muhim rol o'ynaydi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi” fanining ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida aqliy hujum, klaster, inter faollik, «Bumerang» va «Veer», amaliy ish o'yini, portfolio, keys-stadi, onlayn tizimida suhbat va erkin yozuv usullaridan, muammoli ta'lim texnologiyasi, didaktik o'yinlar, shuningdek, kompyuter dasturlaridan (NCI, IABS, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint), slaydlardan, multimediya vositalaridan, internet sahifalari va tizimlaridan foydalanishni tavsiya etiladi.

Ma'ruza, amaliy va laboratoriya darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi. Shuningdek, fanni o'zlashtirish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalangan holda tijorat banklarda qo'llaniladigan yangi hisobvaraqlar rejasi, xo'jalik sub'ektlari o'rtasida hisob-kitoblarni olib borish bilan bog'liq kompyuter dasturlari bilan tanishadilar. Fanning ba'zi mavzularini yoritishda audio va video texnikadan foydalaniladi.

Amaliy darslar mijoz va bank xodimlariga ajratilib maxsus dastur asosida kompyuteri texnikasidan foydalangan xolda ish o'yinlari tashkil etish orqali olib boriladi.

Asosiy qism

“Mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi” fanining predmeti, metodi va ob’ektlari

“Mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi” fani va uning ahamiyati. Fanning predmeti va ob’ekti. “Mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi” *fanining metodi*. “Mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi” fanida analiz, sintez, induksiya, deduktsiya va boshqa usullarning qo’llanilishi. “Mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi” fanining «Banklarda buxgalteriya hisobi», «Bank auditi», «Bank statistikasi», «Bank statistikasi», «Tijorat banklari faoliyati tahlili» va boshqa fanlari bilan o’zaro bog’liqligi.

«Banklarda buxgalteriya hisobi», «Bank auditi» va boshqa mutaxassislik fanlaridan ma’ruzaga tayyorgarlik ko’rish va uni o’qitish metodikasi

Ma’ruza o’qish jarayonining asosiy shakli. Ma’ruzaning tarkibiy qismlarini ko’rsatish. Kirish qismining mohiyati, ma’ruzada qo’yiladigan savollar va ularning ketma-ketligini ta’minlashda e’tibor berilishining zarurligi. Ma’ruzada qo’yiladigan savollar hozirgi kunning dolzarb muammolari bilan bog’lanishni bilishi. *Muammoli ma’ruzalar bilan umumiy ma’ruzalarning farqi*. Ma’ruzaga tayyorgarlik ko’rish. Ma’ruza rejasini tuzish, amaliyot materiallari yig’ish, ma’ruzaning tarkibi va unda qo’yiladigan savollarning asosiy mazmuni, qo’shimcha savollar, ma’ruzaning qo’shimcha qismi. Ma’ruza matni, unga qo’yiladigan talablar. Ma’ruzani tayyorlashda davlatning qonun-qoidalari, farmonlari, yo’riqnomalari, Markaziy bank, Moliya vazirligi va Davlat soliq Qo’mitasining me’yoriy hujjatlaridan, maxsus adabiyotlaridan foydalanish tartibi. Ma’ruza materiallarida muammolar qo’yish va ularni echish yo’llarini ko’rsatib bera olish. Ma’ruzada slaydlar, jadvallar, multimediyalar va boshqa amaliy materiallardan foydalanish va ularni dars jarayonida ishlatish, ma’ruza o’qishda auditoriya bilan aloqa o’rnatish usullari.

Seminar (amaliy) mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko’rish va uni o’qitish metodikasi

Seminar (amaliy) mashg’ulotlarda talablarning nazariy jihatdan olgan bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashda asos bo’luvchi omil bo’lib, uning o’quv jarayonidagi roli, ayniqsa salmoqlidir.

Seminar mashg'ulotini olib borishda seminarning maqsadi va vazifasini aniqlash. Ma'ruza bilan seminarning uzviy bog'liqligini ta'minlash. Ko'riladigan savollarning mantiqiy birligiga erishish.

Seminarlarga tayyorlik ko'rish usullari. Adabiyotlar, amaliy materiallar tanlash, ularni o'rganish va auditoriyaga etkazish usullari. *Ma'ruzani asosiy va mikrosavollarga ajratish, savollarni ko'rish bo'yicha vaqtni taqsimlash.* Seminar olib borishda ko'rgazmali qurollardan foydalanish. Talabalarning seminariga tayyorgarligi, ularning bilimini, hozirjavobligi va darsga aktiv qatnashish darajasini baholash. Seminarni olib borish usuli va shakllari, davra suhbatlari, savol-javob, ish qinlari, bahslashuvlar, munozaralar va boshqalar.

«Banklarda buxgalteriya hisobi» fani bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash metodikasi

«Banklarda buxgalteriya hisobi» fani buyicha ma'ruzalar tayyorlash xususiyatlari va mazkur fanning turli mulkchilik shakillaridagi xo'jalik yurutuvchi sub'ektlarni boshqarishda tutgan o'rnini tushunish va nazariy bilimlarini amaliy bilimlar bilan boytishni asoslab berish. Iqtisodiyotda banklarda buxgalteriya hisobining o'rnini va ahamiyati; bank operatsiyalarini amalga oshirishda buxgalteriya hisobining roli va ahamiyati; bozor iqtisodiyoti qonunlarini mukammal bilishi; iqtisodiy ma'lumotlarni, tahlil qilish va rial ma'lumotlarga ega bo'lish. *O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliy bilimni solishtirish usullarini tashkil etish, tinglovchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini tobora ortirib ular uchun imkon qadar mustaqil bilim olishga sharoit yaratib berish.*

«Bank auditi» fani bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash metodikasi

«Bank auditi» fani buyicha ma'ruzalarni tayyorlash xususiyatlari va ushbu fanni o'rganishda auditorlik faoliyatini tushunish va nazariy bilimlarini amaliy bilimlar bilan boytishni asoslab berish. Bank auditi va uning turlari, tashqi auditorlik tashkilotlari, ularning rivojlanish tarixi, ichki audit xizmati va uning tashkil etilishi, auditning Axloq kodeksi, auditning umumiy, ishchi, hisobot va maxsus standartlari, auditorlik xulosasi va hisobotini tuzish, bank operatsiyalari auditi bo'yicha xulosa va takliflar berish va boshqalar. *O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliy bilimni solishtirish usullarini tashkil etish, magistrantlarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini tobora ortirib, ular uchun imkon qadar mustaqil bilim olishga sharoit yaratib berish.*

«Bank statistikasi» fani bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash metodikasi

«Bank statistikasi» fani buyicha ma'ruzalar tayyorlash va ushbu fanning turli mulkchilik shakllaridagi xo'jalik yurutuvchi sub'ektlarni boshqarishda tutgan o'rnini tushunish va nazariy bilimlarini amaliy bilimlar bilan boyitishni asoslab berish. Bank statistikasi ko'rsatkichlari tizimi, pul muomalasi, naqd pulsiz hisob-kitoblar, kredit, investitsiya va jalb qilingan mablag'lar statistikasi va boshqalar. Fanni *o'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliy bilimni solishtirish usullarini tashkil etish, magistrantlarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini tobora ortirib ular uchun imkon qadar mustaqil bilim olishga sharoit yaratib berish.*

«Tijorat banklari faoliyati tahlili» fani bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash metodikasi

«Tijorat banklari faoliyati tahlili» fani buyicha ma'ruzalar tayyorlash xususiyatlari. Banklarda tahlilning ahamiyati, uni tashkil qilish, bank ma'lumotlarini tahlil qilish, tahlil natijalari bo'yicha xulosa va takliflar berish va boshqalar. *O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliy bilimni solishtirish usullarini tashkil etish, magistrantlarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini tobora ortirib ular uchun imkon qadar mustaqil bilim olishga sharoit yaratib berish.*

Mutaxassislik fanini o'qitishda ko'rgazmali qurollardan va texnik vositalardan foydalanish metodikasi

Dars olib borish jarayonida ko'rgazmali qurollarning roli va ahamiyati. *Ko'rgazmali qurollar turlari, ulardan foydalanish yo'llari.* Ularni darsga, ma'ruzalarga tayyorlash. Slaydlar tayyorlash va ulardan foydalanish, jadval va sxemalar tuzish, ulardan foydalanish. Texnik vositalardan foydalanish.

Mustaqil ta'limni tashkil qilish metodikasi

O'quv jarayonida talabalarning mustaqil ishi va mustaqil ta'limning roli va ahamiyati. *Mustaqil ta'lim rejasini tuzish, uni tayyorlashni o'rganish.* Mustaqil ta'limni olib borish bo'yicha, mavzular, ularning rejasi, shakillari, ma'ruzalar, referatlar, davr-suhbatlari, bibliografiyalar tuzish va boshqalar.

Mutaxassislik fanini o'qitish jarayonida talablar bilimni nazorat qilish va baholash

Nazoratning turlarini bilish: seminar mashg'ulot, yozma ishlar, tayanch iboralar bo'yicha yozma ishlar, testlar, munozara, bahslashuv, sinovlar.

Talabalarning davomati, aktivligi faolligi va boshqa omillarga e'tibor berish, joriy, oraliq, yakuniy nazorat natijalarini muhokama qilish va hokazolar.

Amaliy mashrulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Amaliy mashrulotlari mavzulari

1. "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" fanining predmeti, metodi va ob'ektlari
2. «Banklarda buxgalteriya hisobi», «Bank auditi» va boshqa mutaxassislik fanlaridan ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish va uni o'qitish metodikasi
3. Seminar (amaliy) mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va uni o'qitish metodikasi
4. «Banklarda buxgalteriya hisobi» fani bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash metodikasi
5. «Bank auditi» fani bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash metodikasi
6. «Bank statistikasi» fani bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash metodikasi
7. «Tijorat banklari faoliyati tahlili» fani bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash metodikasi
8. Mutaxassislik fanini o'qitishda ko'rgazmali qurollardan va texnik vositalardan foydalanish metodikasi
9. Mustaqil ta'limni tashkil qilish metodikasi
10. Mutaxassislik fanini o'qitish jarayonida talablar bilimini nazorat qilish va baholash

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim talabaning bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, auditni o'rganishda fanning biror bir mavzusini to'laroq o'zlashtiradi va mavzu belgilangan shaklda bajariladi. Mustaqil ishni bajarishdan maqsad, talabaning o'qishi davomida olgan bilimini mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi.

Kurs ishlari bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

"Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" fani bo'yicha kurs ishi yozish o'quv rejada rejalashtirilmagan.

Informatsion-uslubiy ta'minot

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy (xususan, interfaol) metodlari, pedagogik va axborot-qommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, taqdimot, elektron didaktik) texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

O'quv jarayonini tashkil etishda mavzularni ko'rgazmali vositalardan, slaydlar, diaproektor va jadvallardan foydalanish asosida o'rganish ko'zda tutilgan. Ayrim amaliy mashg'ulotlarni bajarishda shaxsiy kompyuterlardan foydalanish tavsiya etiladi. Tahlillar, prognozli ko'rsatkichlarni hisoblash, diagrammalar personal kompyuterda elektron jadvallarda Excel dasturi bilan ishlash orqali yorqin namoyon etilishi mumkin.

Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fanini o'rganishda magistrantlarga amaliy yordam tariqasida ular hisobot ma'lumotlari va boshqa amaliy materiallar, tegishli chizmalar, jadvallar, slaydlar, tarqatma materiallar bilan ta'minlanadi.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008y.
2. Karaliev T.M., Fayzullayeva M. “Bankovskiy audit”. Uchebnoe posobiye. T. “IQTISOD-MOLIYA” 2014 g.
3. Karaliev T.M., Sattorov O.B., Sayfiddinov I.F. “Tijorat banklari faoliyati tahlili” TMI. 2012y.
4. Murugova I.A. Operatsionnaya texnika i uchet v bankax. - T.: MOLIYA – IQTISOD 2010g..
5. Navruzova K.N.,Ortikov O.A. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2014 y.
6. Omonov A., Karaliyev T.M. Banklarda buxgalteriya hisobi - T.: MOLIYA – IQTISOD 2014g.
7. Omonov A. Ernazarov N. Sharipova N. Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobi T.: - MOLIYA-IQTISOD 2013 y. 76 b.

5.2.Qo'shimcha adabiyotlar:

8. Zokirova M.Sh.Bank statistikasi . -T.: “Moliya” -2009 y
9. Lavrushin O.I. Bankovskoe delo. Ekspres – kurs-M.: Knorus 2009g
10. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti. –M.: Askeri 2007g.
11. Navruzova, K.N. Mirzaeva L.O. Banklarda buxgalteriya hisobining halqaro standartlari T., TMI. 2012y.
12. Parfenov K.G “Bankovskiy uchet i operatsionnaya texnika v kommercheskix bankax” Izd-3-e pererabotka.–M.: 2012g.
13. Qodirov E.T. “Xorijiy mamlakatlarda bank ishi”. T. “Noshir”.2012. 286 b.
14. Karaliev T.M., Rayemova N.M. “Tijorat banklarining investitsiya portfeli va uni boshqarish”. Monografiya. Toshkent, “Extremum press” 2014 yil 102 b.
15. Smulov A. M. Promishlennye i bankovskie firmi: vzaimodeystvie i krizisnie situatsii. 2009. Fi.S,
16. Bank axborotnomasi ro'znomasi. -T.: 2010-2014 yy.
17. Bozor, pul va kredit jurnal. - T.: 2010-2014 yy.
18. Internet saytlari
<http://www.ziyonet.uz>

<http://www.lex.uz>

<http://www.cbu.uz>.

<http://www.bfa.uz>

<http://www.uba.uz>

<http://www.agrobank.uz>

<http://www.bankclup.ru>

<http://www.bankdelo.ru>

<http://www.bankir.ru>